



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2025- yil yanvar oyi uchun
dastlabki ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel.: (99879) 223-50-43*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2025- yil yanvar oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 139,4 mln. AQSH dollariga etdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (2025- yil yanvar, mln. AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2025- y.: **139,4** (+13,0 %)

(2024- y.: **123,4**)



Saldo

2025- y.: **35,8** (2024- y.: **35,8**)



Eksport

2025- y.: **87,6** (+10,1 %)

(2024- y.: **79,6**)




Import

2025- y.: **51,8** (+18,1 %)


(2024- y.: **43,8**)

TSA'dagi ulushi

37,2 %




QIT'ALAR KESIMIDA TSA (2025-yil yanvar, mln AQSH doll.)



<p><u>Yevropa</u> Eksport – 80,0 Import – 24,5 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 74,9 %</p>	<p><u>Osiyo</u> Eksport – 6,2 Import – 22,8 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 20,8 %</p>	<p><u>Afrika</u> Eksport – 0,1 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,1 %</p>
<p><u>Shimoliy Amerika</u> Eksport – 1,0 Import – 4,5 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 4,0 %</p>	<p><u>Janubiy Amerika</u> Eksport – 0,3 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,2 %</p>	<p><u>Avstraliya</u> Eksport – 0,0 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,0 %</p>

AYRIM ITTIFOQ VA IQTISODIY TASHKILOTLAR BILAN TSA (yanvar, mln AQSH doll.)



TSAda eksport hajmi 87,6 mln. AQSH dollariga (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 110,1 % ni tashkil etdi) va import hajmi 51,8 mln. AQSH dollariga (118,1 % ni tashkil etdi) yetdi. Hisobot davrida 35,8 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.




NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2025- yil yanvar, mln. AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Fransiya, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya va AQSHdan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.

Navoiy viloyati jahonning 53 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (50,5%), Rossiyada (12,5%), XXRda (6,4%), Buyuk Britaniyada (6,0%) va AQSHda (4,0%) qayd etilgan.











<p>Fransiya</p> <p>TSA – 70,4</p> <p>Eksport: 69,8 Import: 0,6</p>  50,5 %	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 17,4</p> <p>Eksport: 6,2 Import: 11,2</p>  12,5 %	<p>XXR</p> <p>TSA – 8,9</p> <p>Eksport: 0,7 Import: 8,2</p>  6,4 %	<p>Buyuk Britaniya</p> <p>TSA – 8,3</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 8,3</p>  6,0 %	<p>AQSH</p> <p>TSA – 5,5</p> <p>Eksport: 1,0 Import: 4,5</p>  4,0 %
<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 4,4</p> <p>Eksport: 0,3 Import: 4,1</p>  3,2 %	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 4,3</p> <p>Eksport: 1,7 Import: 2,6</p>  3,1 %	<p>Yaponiya</p> <p>TSA – 3,6</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 3,6</p>  2,6 %	<p>Daniya</p> <p>TSA – 2,5</p> <p>Eksport: 2,5 Import: 0,0</p>  1,8 %	<p>Eron</p> <p>TSA – 1,4</p> <p>Eksport: 0,1 Import: 1,3</p>  1,0 %



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2023- y.	2024- y.	2025- y.
Fransiya	31,7	59,5	70,4
<i>Eksport</i>	31,5	59,3	69,8
<i>Import</i>	0,2	0,2	0,6
Rossiya	7,5	18,8	17,4
<i>Eksport</i>	4,3	4,0	6,2
<i>Import</i>	3,2	14,8	11,2
XXR	11,7	14,9	8,9
<i>Eksport</i>	0,1	0,4	0,7
<i>Import</i>	11,6	14,5	8,2
Buyuk Britaniya	1,0	-	8,3
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,0	-	8,3
AQSH	-	0,1	5,5
<i>Eksport</i>	-	0,1	1,0
<i>Import</i>	-	-	4,5
Qozog'iston	9,3	3,5	4,4
<i>Eksport</i>	1,4	0,9	0,3
<i>Import</i>	7,9	2,6	4,1
Turkiya	4,2	7,5	4,3
<i>Eksport</i>	1,8	5,5	1,7
<i>Import</i>	2,4	2,0	2,6
Yaponiya	-	1,7	3,6
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	1,7	3,6
Daniya	0,7	2,3	2,5
<i>Eksport</i>	-	2,3	2,5
<i>Import</i>	0,7	-	-
Eron	0,5	1,4	1,4
<i>Eksport</i>	0,3	1,3	0,1
<i>Import</i>	0,2	0,1	1,3

Davlatlar	2023- y.	2024- y.	2025- y.
Shveysariya	-	0,6	1,4
 <i>Ekspost</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	0,6	1,4
Germaniya	0,7	2,1	1,3
 <i>Ekspost</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,7	2,1	1,3
Litva	0,8	0,7	1,1
 <i>Ekspost</i>	0,3	0,4	0,7
<i>Import</i>	0,5	0,3	0,4
Koreya Respublikasi	0,4	0,9	1,0
 <i>Ekspost</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,4	0,9	1,0
Hindiston	1,9	0,4	0,9
 <i>Ekspost</i>	-	-	0,3
<i>Import</i>	1,9	0,4	0,6
Afg'oniston	1,7	2,2	0,9
 <i>Ekspost</i>	1,7	2,2	0,9
<i>Import</i>	-	-	-
Qirg'iz Respublikasi	1,8	1,1	0,7
 <i>Ekspost</i>	1,5	1,0	0,4
<i>Import</i>	0,3	0,1	0,3
Italiya	0,1	0,2	0,6
 <i>Ekspost</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,1	0,2	0,6
Ukraina	-	0,1	0,4
 <i>Ekspost</i>	-	0,1	0,4
<i>Import</i>	-	-	-
Belarus	1,0	0,1	0,4
 <i>Ekspost</i>	0,9	0,1	0,3
<i>Import</i>	0,1	-	0,1



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI * (2025- yil yanvar, ming AQSH doll.)




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 72,0 % ulush bilan 100 462,6 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Tomdi tumani 0,01 % ulush bilan 9,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi)



2025- yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 17,8 % ni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 98,0 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2025- yilning yanvar oyida 2024- yilning mos davriga nisbatan 16,9 % ga ko'paydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 82,2 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2025- yil yanvar holatiga ko'ra, 24,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 8,9 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 15,9 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



NAVOIY VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2025- yil yanvar, ulushi, % da)

Rossiya – 12,5



Qozog'iston – 3,2



Qirg'iz Respublikasi – 0,5



Ukraina – 0,3



Belarus – 0,3



Ozərbayjon – 0,3



Armaniston – 0,3




Tojikiston – 0,3




Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (12,5 %), Qozog'iston (3,2 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (0,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.

NAVOIY VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar, mln. AQSH dollari)



 Navoiy viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 23,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 7,7 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 15,6 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2025- yil yanvar)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar tomonidan 87,6 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2024- yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2025- yil yanvar, ulushi % da)



2,7 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,0 %

2. Ichimliklar va tamaki



0,4 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari



3,2 %

4. Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar



0,1 %

5. Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar



82,6 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar



8,5 %

7. Sanoat tovarlari



0,5 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



1,9 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,0 %

10. Boshqa tovarlar



0,1 %

11. Xizmatlar

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlar XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami eksport	79,6	87,6	178,8	110,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,7	2,4	87,4	90,0	3,3	2,7
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,9	0,4	10,4 b.	19,1	2,4	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	2,4	2,8	2,3 b.	118,3	3,0	3,2
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,1	-	12,8	0,3	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	60,5	72,3	1,8 b.	119,5	76,1	82,6
Sanoat tovarlari	10,2	7,4	163,3	72,8	12,8	8,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	-	0,4	-	-	-	0,5
Turli xil tayyor buyumlar	1,6	1,7	160,0	104,8	2,0	1,9
Xizmatlar	0,1	0,1	93,9	177,1	0,1	0,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,9 % ni tashkil etib, ular asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (82,6 %), sanoat tovarlari (8,5 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar (3,2 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2025- yil yanvar)


 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 391,6	90,0
Sabzavotlar va mevalar	1 561,2	2,5 b.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	806,7	42,2
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	23,3	20,2
Tirik hayvonlar	0,4	-
Ichimliklar va tamaki	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	357,5	19,1
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	276,5	35,1
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	10,5	1,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	54,5	-
Tabiiy kauchuk	16,0	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	2 840,2	118,3
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2 840,2	118,3
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	26,9	12,8
O'simlik moyi va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	26,9	12,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	72 348,5	119,5
Noorganik kimyo moddalari	70 244,2	107,9
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	281,5	32,1
O'g'itlar	1 736,7	-
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	5,1	55,5
Efir moyi, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	1,8	1,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	79,2	155,7

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	7 416,9	72,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 741,5	53,6
Rangli metallar	2 178,7	2,6 b.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	460,2	113,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	36,5	24,3 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	429,6	-
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	57,6	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	2,6	-
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	368,8	-
Metallarni qayta ishlash mashinalari	0,6	-
Turli xil tayyor buyumlar	1 701,6	104,8
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1 670,3	111,9
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	28,9	21,9
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari , isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	2,4	-
Xizmatlar	124,5	177,1
Moliyaviy xizmatlar	46,4	90,6
Transport xizmatlari	4,7	46,1
Safarlar	1,5	16,9
Boshqa xizmatlar	71,9	-

Navoiy tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2025- yilning yanvar oyida MDH mamlakatlarga 8,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qililib, jami eksportning 10,2 % ini tashkil etdi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi)



2025- yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya, Rossiya, Daniya, Turkiya, AQSH, Afg'oniston va Xitoy kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 94,5 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'rni
	2024 y.	2025 y.		
Fransiya	59 342,0	69 789,8	117,6	1
Rossiya Federatsiyasi	4 044,7	6 238,0	154,2	2
Daniya	2 329,0	2 471,0	106,1	3
Turkiya	5 515,2	1 727,1	31,3	4
AQSH	139,9	1 009,0	7,2 b.	5
Afg'oniston	2 237,2	856,9	38,3	6
Xitoy	423,1	724,2	171,2	7
Litva	360,3	684,4	190,0	8
Ukraina	54,3	409,6	7,5 b.	9
Ozarbayjon	34,7	396,8	11,5 b.	10
Qirg'iz Respublikasi	1 034,7	395,2	38,2	11
Armeniya	0,0	380,1	0,0	12
Qozog'iston	926,6	350,9	37,9	13
Tojikiston	453,9	339,9	74,9	14
Belarus	92,7	325,5	3,5 b.	15
Pokiston	0,0	323,0	0,0	16
Hindiston	0,0	272,0	0,0	17
Braziliya	0,0	247,1	0,0	18
Birlashgan Arab Amirliklari	84,4	185,2	2,2 b.	19
Eron	1 268,1	107,1	8,4	20

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI * (2025- yil yanvar, ming AQSH doll.)



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 83,0 % bilan 72 710,4 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Zarafshon shahri 0,02 % bilan 20,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI






Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2025- yil yanvar oyida 126,0 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Kanada (52,0 %) hamda Rossiya Federatsiyasi (42,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2025- yil yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 75,9 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 12,0 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etdi.






MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2025- yil yanvar, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)


Quritilgan meva-sabzavotlar	Piyoz	Uzum
6,0 ming AQSH dollari	4,3 ming AQSH dollari	33,5 ming AQSH dollari
5,0 tonna	21,4 tonna	17,0 tonna
 0,0 %	 5,0 % ↓	 43,6 % ↓



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2025- yil yanvar)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Kanada	22,0	39,5	52,0
 Rossiya Federatsiyasi	82,6	32,1	42,4
 Iroq	21,4	4,3	5,6

* qiymat ifodasidan

 2025- yil yanvar oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Kanadaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 52,0 % ini), bu esa Iroq davlatini eksport hajmiga nisbatan 9,2 barobarga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2025- yil yanvar oyi yakuni bo‘yicha 1 994,0 ming AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 2,3 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 73,8 % ni tashkil etdi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (83,7 %), sintetik, jut tolalar (13,9 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 5 ta davlatiga eksport qilindi.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2025- yil yanvar, ming AQSH dollari)

100 %

1 994,0 (2024 y.: 2 701,1)

Jami

83,7 %

1 670,3 (1 483,9)

Kiyim-kechak Ip kalava

13,9 %

276,5 (356,8)

Sintetik, jut tolalar

0,4 %

8,8 (0,0)

Tikuvchilik, ipak va sintetik iplar

0,1 %

0,1 (334,3)

Adyol, parda, gilam, yotoq choyshablari

1,9 %


3 8,3 (526,1)

Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari

Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2025- yil yanvar, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 124,5 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,1 % ini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 177,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (37,3 %), transport xizmatlari (3,8 %), safarlar turizm xizmatlari) (1,2 %) va boshqa xizmatlar (57,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

import

NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

2025- yilning yanvar oyida import hajmi 51,8 mln. AQSH dollarini va 2024- yilning mos davriga nisbatan 118,1 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (52,2 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (17,7 %) hamda sanoat tovarlari (8,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2025- yil yanvar, ulushi, % da)



5,6 %

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,0 %

2. Ichimliklar va tamaki



0,9 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



17,7 %

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar



0,0 %

5. Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar



7,3 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



8,5 %

7. Sanoat tovarlari



52,2 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



2,6 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,0 %

10. Boshqa tovarlar



5,2 %

11. Xizmatlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi 49,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 2,7 mln. AQSH dollariga etdi.

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami import	43,8	51,8	113,1	118,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,8	2,9	80,0	162,0	4,1	5,6
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,7	0,4	72,4	67,1	1,5	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,1	9,1	154,2	63,1 b.	0,3	17,7
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	-	3,4 b.	-	0,7	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	9,9	3,8	185,5	38,3	22,6	7,3
Sanoat tovarlari	11,0	4,4	98,4	40,1	25,2	8,5
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	18,6	27,1	114,5	145,7	42,4	52,2
Turli xil tayyor buyumlar	1,0	1,4	105,1	139,6	2,2	2,6
Xizmatlar	0,4	2,7	25,5	6,1 b.	1,0	5,2



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2025- yil yanvar)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 891,0	162,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 154,1	71,4
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	56,1	92,8
Sabzavotlar va mevalar	1 208,8	28,8 b.
Tirik hayvonlar	407,4	11,6
Go'sht va go'sht mahsulotlari	64,6	-
Ichimliklar va tamaki	-	-
Ichimliklar	-	-
Noziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	438,1	67,1
Probka va yog'och-taxtalar	106,0	107,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	95,8	111,6
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	236,3	68,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	9 144,2	63,1 b.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	9 123,9	62,9 b.
Ko'mir, koks va briketlar	20,3	-
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 800,8	38,3
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	107,0	2,2 b.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1 958,7	176,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	157,4	2,5
Efir moyi, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	102,2	165,6
Noorganik kimyo moddalari	712,1	52,7
Organik kimyo moddalari	205,0	35,6
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	309,5	104,1
O'g'itlar	9,5	-
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	239,4	2,2 b.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	4 422,9	40,1
Cho'yan va po'lat	692,0	73,8
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	687,2	98,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	858,1	2,2 b.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	70,3	4,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	60,3	173,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	319,8	106,9
Rangli metallar	1 699,1	23,7
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	36,1	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	27 079,2	145,7
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	1 253,8	45,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	3 680,0	77,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	3 141,8	51,3
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2 954,8	3,2 b.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	14 159,6	7,0 b.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	963,1	58,4
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	75,0	4,2 b.
Metallarni qayta ishlash mashinalari	851,1	2,3 b.
Turli xil tayyor buyumlar	1 357,4	139,6
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1 060,2	147,6
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	187,0	77,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	72,3	12,6
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	24,2	38,7
Poyabzal	13,6	2,8 b.
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	0,1	-
Xizmatlar	2 705,9	6,1 b.
Transport xizmatlari	1 106,5	4,7 b.
Moliyaviy xizmatlar	287,4	-
Safarlar (turizm xizmatlari)	4,5	4,1 b.
Boshqa xizmatlar	1 307,5	6,2 b.

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2025- yil yanvar oyi natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 30,7 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 90,1 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSH dollari, ulushi)



2025- yil yanvar oyida Navoiy viloyati 36 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSH, Qozog'iston, Yaponiya va Turkiya) jami importning 81,6 % ini tashkil qiladi, bu 42,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2024 y.	2025 y.		
Rossiya Federatsiyasi	14 767,1	11 192,1	75,8	1
Buyuk Britaniya	1,4	8 319,1	5895,9 b.	2
Xitoy	14 463,1	8 152,7	56,4	3
AQSH	0,0	4 502,8	0,0	4
Qozog'iston	2 613,9	4 067,0	155,6	5
Yaponiya	1 747,9	3 585,3	2,1 b.	6
Turkiya	1 957,6	2 552,9	130,4	7
Shveysariya	591,5	1 398,9	2,4 b.	8
Germaniya	2 120,2	1 323,1	62,4	9
Eron	51,5	1 301,9	25,3 b.	10
Koreya Respublikasi	937,6	1 041,5	111,1	11
Hindiston	408,3	647,9	158,7	12
Italiya	217,8	597,1	2,7 b.	13
Fransiya	228,6	596,3	2,6 b.	14
Litva	342,1	380,4	111,2	15
Xitoy, Makao MMR	0,0	375,1	0,0	16
Bangladesh	0,0	313,7	0,0	17
Qirg'iz Respublikasi	35,0	263,9	7,5 b.	18
Turkmaniston	223,6	226,5	101,3	19
Chexiya	217,4	171,9	79,1	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORT HAJMI (2025- yil yanvar, ming AQSH doll.)




Viloyatning importi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 53,5 % bilan 27 752,2 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Tomdi tumani 0,02 % bilan 9,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2025- yil yanvar, ming AQSH dollarida)




2025- yil yanvar oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 2 705,9 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 5,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 b. ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (40,9 %), moliyaviy xizmatlar (10,6 %), safarlar (turizm xizmatlari) (0,2 %) va boshqa xizmatlar (48,3 %) dan iborat bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2025- yil yanvar oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 4 422,9 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 40,1 % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 8,5 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2025- yil yanvar)

1 324,8 ming AQSH
doll. *Ulushi – 30,0 %*



XXR

1 119,0 ming AQSH
doll. *Ulushi – 25,3 %*



Qozog'iston

510,5 ming AQSH
doll. *Ulushi – 11,5 %*



Turkiya

485,9 ming AQSH
doll. *Ulushi – 11,0 %*



Rossiya

313,7 ming AQSH
doll. *Ulushi – 7,1 %*



Bangladesh



2025- yil yanvar oyida sanoat mahsulotlari importi hajmining Navoiy viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi 1 324,8 ming AQSH dollari (30,0 %), Qozog'iston 1 119,0 ming AQSH dollari (25,3 %) va Turkiya 510,5 ming AQSH dollari (11,5 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.